E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

XAMMURAPI QONUNLARI – QADIMGI SHARQNING DASTLABKI QONUNLAR TO'PLAMI

Crossref Doi : https://doi.org/10.37547/iqro-volume04-issue01-28

To'xtasinov Mira'zam Abdujabbor o'g'li
mirazamtohktasinov@gmail.com

Namangan davlat universiteti

Annotatsiya
Ushbu maqolada Xammurappi qonunlari va uning Qadimgi sharq davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan muhim o'rni haqida ma'lumotlar berilgan.
Kalit so'zlar
Diorit, stela, mixxat, sinfiy jamiyat, ,,Xammurappi kodeksi'', bazalt, assurologlar.

Qadimgi sharq mamalakatlari o'zining ajoyib va qiziqarli tarixi bilan qolgan mamalakatlar tarixidan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda dastlabki sivilizatsiyalarning vujudga kelishi ham Qadimgi Sharq nomi bilan bog'liq. Ma'lumki, Qadimgi sharqdagi dastlabki sivilizatsiyalar makonu bu Misr hisoblanadi. Mesopatamiya sivilizatsiyasi ham qadimgi sharq sivilizatsiyasining beshigi hisoblanadi. Zero Qadimgi sharqdagi ilk qonunlar to'plami ham huddi shu Mesopatamiya hududida vujudga kelgan.

Xammurapi qonunlari Mesopatamiyaning shimoliy qismida, Frot daryosi bo'yida joylashgan Bobil davlatining eng mashhur hukmdorlaridan biri, amoriylar sulolasining oltinchi vakili hisoblangan Xammurapi tomonidan tuzilgan. Xammurapi mil. avv. 1792 – 1750-yillarda Bobil davlatini boshqargan. Otasi Sinmuballit davrida Xammurapi davlat va ma'muriy boshqaruv ishlarida qatnashib, siyosatda tajriba orttirgan. Manbalarda yozilishicha, Xammurapi o'z davrining yirik, mashhur davlat arbobi, uzoqni ko'ruvchi ayyor diplomat, yirik strateg, dono qonunshunos, uddaburon va aqlli tashkilotchi shaxs bo'lgan. U o'z ittifoqchilari bilan harbiy ittifoq tuzib, xo'jalik masalalarida nozik siyosat olib borib, ishi bitgach ulardan yuz o'girgan ham.[1] Shunday bo'lsada o'z davrining yirik siyosatchisi va qonun tuzuvchisi bo'lgan Xammurapi Bobil podsholigining xo'jaligi, ijtimoiy va siyosiy tuzumi haqida eng qimmatli manba hisoblangan qonunlar asoschisi sifatida tarixda o'z nomini muhrlagan.

Xammurapi qonunlari (akkad tilida: Inu Anum sirum) Xammurapi kodeksi Qadimgi Bobilning, qonunchilik kodeksidir. Dunyodagi eng qadimgi huquqiy yodgorliklardan biri.[2] Ushbu qonun bazalt tosh ustuniga qadimgi mixxat yozuvida yozilgan bo'lib, bu tosh ustun hozirgi kunga qadar Fransiyaning butun dunyoga mashhur bo'lgan muzeylaridan biri Luvr

[1] Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. –T.: Tafakkur. 2016. B. 120.

[2] Xammurapi qonunlari - Vikipediya" https://uz.m.wikipedia.

muzeyida saqlanmoqda.[3] Xammurapi qonunlari yozilgan stela — bu material sifatida qora diorita (ba'zi manbalarda esa bazalt)dan yasalgan konus shaklidagi yodgorlik, balandligi 2,25 metr, aylanadan tepaga 1,65 metr, pasga 1,90 metr va og'irligi 4 tonnani tashkil etadi. Qonunlarning yaratilgan vaqti haqida assurologlar dastlab turli xil fikrlarni bildirishgan: yodgorlik miloddan avvalgi 2000 yilga yoki miloddan avvalgi 2225-yilga to'g'ri kelishi mumkin. Nemis tarixchisi B.Meysnerning so'zlariga ko'ra, qonunlar miloddan avvalgi 1955-yilda tuzilgan. Hozirgi vaqtda qonunlar muqaddimasida keltirilgan yozuvlarga asoslangan holda shunday fikrga kelgan. Xammurapi tomonidan bosib olingan shahar va davlatlar ro'yxatiga asoslanib, qonunlar Xammurapi hukmronligining 37-yilidan oldin, katta ehtimol bilan 40-yilda yozilgan deb taxmin qilish mumkin. Shunday qilib, zamonaviy fanda umumiy qabul qilingan qadimgi Sharq tarixining "o'rta xronologiyasi" asosida qonunlar taxminan miloddan avvalgi 1755-1752 yillarda tuzilgan deyish mumkin.

Bazalt ustunining yuqori qismiga taxtda o'tirgan quyosh xudosi Shamash, uning oldida esa tantanali suratda turgan podsho Xammurapi tasvirlari ishlangan. Ustunning hamma joyiga 247 (ba'zi manbalarda 287, 282) moddadan iborat qonunlar to'plamining mixxat yozuvida yozilgan matni bilan qoplangan. Bazalt ustunini o'rganish jarayonida 247 moddadan 42 modda yozilgan beshta ustunchadagi matnlar qirib tashlanganligi aniqlangan. Olimlaring fikrlariga ko'ra bu ustunni o'lja sifatida olib ketgan Elam istilochilari tomonidan qilinganligi qayd etilgan. Ammo o'sha vaqtlardayoq bu kodeks - qonunning boshqa nusxalari ham topilgan. Shu bois uning qirib tashlangan matni tiklangan. Bobil davlatidagi sudyalari boshqalarni o'qitish maqsadida. shuningdek, adliya ishlarida podsho qonunnining shu nusxalaridan foydalanganlar. Xammurapi qonunlar to'plami uch qismdan iborat bo'lib, ular o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi:

1. Xammurapi qonunining kirish qismi.
2. Qonunlar to'plami matni.
3. Qonunning yakuniy xulosasi.

1).Mazkur qonunning kirish qismida qonunlar majmuasini chiqarishdan asosiy maqsad, mamlakatda adolat o'rnatib faravon hayot yaratishdir deyiladi. Shuningdek qonunning kirish qismida podsho Xammurapi o'z unvonlarini birma-bir ko'rsatib o'tar ekan, o'zining ulug'vorligini ko'klarga ko'tarib maqtab, mamlakat obodonligi uchun qilgan ishlarini bayon etib o'tgan. Qonunlar to'plamining asosiy qismida esa mamlakatdagi jinoiy ishlarga oid, huquqqa, sud ishlarini yuritishga, xususiy mulk huquqining buzilishiga, ya'ni o'g'irlik va talash, jangchilar huquqiga oid bandlar birma-bir ko'rsatib o'tilgan. Qonunning ayrim moddalarida ko'chmas mulkka egalik qilish huquqlari to'g'risida, savdo-sotiq ishlari, garovga qo'yish va olish huquqi, oilaviy huquq to'risida o'z-o'zini qasddan mayib qilish. me'morchilik, me'morlar va kemasoz, qayiqsozlar ishi to'g'risida, ish kuchini yollash va qulchilik to'g'risida atroflicha ma'lumot keltiriladi.

2).Xammurapi qonunining asosiy qismida esa qishloq xo'jaligi, suv inshootlari, ekin maydonlari, ziroatchilik, bog'dorchilik va chorvachilik ishlariga ham alohida e'tibor berilgan.

[3] Xammurapi qonunlari - Vikipediya" https://uz.m.wikipedia.

Google Scholar OpenAIRE zenodo doi digital object identifier ResearchGate ADVANCED SCIENCE INDEX
SEMANTIC SCHOLAR Crossref DRJI Scientific Journal Impact Factor TOGETHER WE REACH THE GOAL
HARVARD LIBRARY The Dataverse Project Dimensions OCLC WorldCat

3).Xammurapi qonunlar to'plamining xulosa qismida esa podsho xalq oldida qilgan xizmatlarini birma-bir sanab o'tgan. Shuningdek. u qonunning xulosa qismida o'zidan keyin uning qonunlarini o'rganib, uni hayotga tatbiq etib ado etuvchi podsholarga oq fotiha bergan. Aksincha, podsho qonunlariga rioya qilmaydigan yoki uni bekor qilishga jur'at etgan va etadiganlarni qahr-g'azab bilan la'natlagan.

Xammurapining 42 yillik hukmronligi davrida Bobil kichik shahardan butun Mesopotamiyani birlashtirgan yangi qudratli davlatning poytaxti, Old Osiyoning yirik siyosiy-iqtisodiy va madaniy markaziga aylanadi. Mesopotamiyada yagona markazlashgan davlat tashkil topadi. Davlat boshqaruvining samarali bo'lishi uchun qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu tadbirlar ichida Xammurapi qonunlari yuqorida ta'kidlab o'tilgan mamlakat rivoji uchun muhim o'rin tutdi. Eng e'tiborli jihati shundaki, agar kimdadir ushbu qonun yuzasidan biror-bir tushunmovchilik yoki kamchilik aniqlansa, shu zahotiyoq hukmdorning shaxsan o'ziga murojaat qilishi va qonun yuzasida e'tiroz bildirishi mumkin edi. Mabodo uning e'tirozi o'zini oqlasa, hukmdor tomonidan shu yerning o'zidayoq o'sha moddaga o'zgartirish kiritish yoki uni bekor qilishi mumkin edi. Qadimgi Bobil jamiyati zo'rlikka asoslangan – "despotic"[4] davlat bo'lib, aholi bir necha tabaqalarga bo'lingan edi. Avvalo aholi bir -biridan farq qiluvchi ozod kishilar va qullarga ajratilgan. Mamlakatning teng huquqli fuqarolari "avilyum"- "odam" deb nomlangan. Ozod fuqarolar tarkibiga katta yer egalari, tamkarlar, ruhoniylar. dehqon jamoalari a'zolari, hunarmandlar kirgan bo'lib, ular o'z o'rnida yana ayrim tabaqalarga bo'linishgan. Bular quldorlar va mayda ishlab chiqaruvchilar tabaqalaridan iborat edi. Ammo aholining asosiy qismini mayda ishlab chiqaruvchilar tashkil etardi. Qonunda odamlarni oliy va quyi tabaqalarga bo'linganligi ta'kidlangan. Qadimgi Bobil jamiyatida ozod kishilardan tashqari "mushkenumlar" toifasiga mansub kishilar ham bo'lganki, ular doimo podsho xo'jaliklarida ishlaganlar. Ularda yer ham. xususiy mulk ham bo'lmagan. ular jamoadan ajralgan holda yashaganlar. Ularni O'rta Osiyodagi kadivarlarga qiyos qilish mumkin. Bobil jamiyatidagi eng quyi tabaqa - bu qullar bo'lib. ular ba'zi imtiyozlarga ega bo'lganlar. Ular ozmi-ko'pmi mulkka ega bo'lib, ozod ayollarga uylanish huquqiga ega bo'lishgan. Ular nikohidan tug'ilgan bola ham erkin bo'lib otasi merosiga egalik qilish huquqiga ega bo'lgan. Xammurapi qonunlarida oila. qulchilik munosabatlari, qarz va qarzdorlik, yer egaligi, huquq va sud ishlari, davlat hokimiyati va boshqa masalalarga ham katta e'tibor berilgan. Qonunning so'nggida shunday deyiladi: "Men Xammurapi adolatli podshodirman, menga qonunlarni Quyosh xudosining o'zi yuborgan. Mening so'zlarim bebaho so'zlar, ishlarini tengi yo'q ishlardir".Shu tufayli mahalliy aholi tomonida ushbu qonunga nisbatan " Xudolar kalomi" deya nom ham berishgan.

Shunday qilib, Xammurapi qonunlari to'plami Qadimgi Bobil podsholigi davrining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumini o'rganishda juda muhim tarixiy manba - hujjat sifatida katta ahamiyatga egadir. Ammo Xammurapi o'z zamonasining mustabid hukmdori sifatida yuqori tabaqa davlat arboblari, quldorlar va katta yer egalari manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat ko'rsatgan. Uning qonunlar to'plami ham yuqori tabaqa kishilarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Xammurapining mazkur qonunlar to'plami undan keyingi davrda Old Osiyoda tuzilgan qonunlar majmualariga ijobiy ta'sir etgan.

[4] Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. –T.: Tafakkur. 2016. B. 127.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Keyingi davrlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar davomida 1901-yil oxiri – 1902-yil boshida Eron hududidagi qadimiy Suza shahrini qazish jarayonida fransuz arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan topilgan. Zamonaviy tadqiqotchilar qonunlarni Sud ishlarini yuritish, mulkning turli shakllarini va nikoh va oilaviy munosabatlarini, shuningdek xususiy va jinoyat huquqini himoya qilish masalalarini tartibga soluvchi 282 bandga ajratadilar. Antik davrda steladan 35 ga yaqin paragraf o‘chirilgan va hozir loydan yasalgan lavhalardagi nusxalaridan qisman tiklangan.

1902-yil oxiridan boshlab Xammurapi qonunlarining Yevropa tillaridagi tarjimalari paydo bo‘la boshladi. Xususan, Qonunlar nemis tiliga tarjima qilingan G.Vinkler va D.G.Myuller, ingliz tiliga V.Jons, italyan tiliga P.Bonfante tomonidan tarjima qilingan. 1904 yilda Qonunlarning rus tiliga ikkita tarjimasi nashr etildi, ulardan birinchisi injilshunos olim A.P. Lopuxin, ikkinchisi advokatlar A.G. Gusakov va V.A. Krasnokutskiy („Asar Hammurapi qonunlari“ nomi ostida); ikkala tarjima ham Yevropa tillaridan qilingan. 1914-yilda B.A. Turayev tahriri ostidagi akkadcha asl nusxadan birinchi ruscha tarjimani Sankt-Peterburg universitetining tarix-filologiya fakulteti privatdotsenti I.M. Volkov amalga oshirdi. Sovet davrida „Xammurapi qonunlari“ni I.M. Dyakonov (1952, I. M. Volkovning qayta ko‘rib chiqilgan tarjimasi asosida), L.A. Lipin (1963) va V.A. Jeykobson (2002-yilda). Umuman olganda, XX-asrning oxiriga kelib, ushbu yodgorlikning kamida o‘nlab tarjimalari dunyoning barcha eng muhim tillarida, shu jumladan lotin tilida ham nashr etilgan.

Xammurapi qonunlaridan na’munalar;

1-modda. Agar biror kishi qasamyod bilan biron kishini qotillik aybini unga yuklagan, lekin uni isbotlamagan bo'lsa, u holda uning ayblovchisi o'ldirilishi kerak.

2-modda. Agar biror kishi jodugarlik aybini odamga tashlagan va uni isbotlamagan bo'lsa, unda jodugarlik ayblovi qo'yilgan kishi Daryo xudosiga borib, daryoga cho'mishi kerak, agar daryo uni ushlasa, uning ayblovchisi uning uyini olib qo'yishi mumkin. Agar daryo bu odamni poklasa va u zararsiz qolsa, unga sehrgarlikni ayblagan odam o'ldirilishi kerak va daryoga cho'mgan kishi ayblovchining uyini olishi mumkin.

3-modda. Agar biror kishi jinoyat to'g'risida guvohlik berish uchun sudga kelgan bo'lsa va u aytgan so'z isbotlanmagan bo'lsa va bu ish hayot masalasi bo'lsa, unda bu odam o'ldirilishi kerak.

6-modda. Agar biror kishi xudo yoki saroy mulkini o'g'irlagan bo'lsa, u holda u o'ldirilishi kerak; shuningdek, o'g'irlangan narsalarni qo'lidan olgan kishi o'ldirilishi kerak.

59-modda. Agar odam bog 'egasidan xabardor bo'lmasdan odamning bog'idagi daraxtni kesgan bo'lsa, unda u kumushning 1/2 qismini tortishi kerak.

64-modda.Agar biror kishi o'z bog'ini bog'bonga etishtirish uchun beradigan bo'lsa, u holda bog'bon bog'ni ushlab turganda, daromadning 2/3 qismini bog 'egasiga berishi kerak va u 1/3 qismini olishi mumkin.

99-modda. Agar biror kishi bir odamga "sheriklik" tartibida kumush bergan bo'lsa, unda keladigan foyda va zarar, ular Xudo oldida teng ravishda baham ko'rishlari kerak.

124-modda. Agar biror kishi guvohlar oldida boshqa bir odamga kumush, oltin yoki boshqa narsalarni bergan bo'lsa, keyin u buni rad etsa, u holda bu odam fosh bo'lishi kerak vau rad etgan hamma narsa ikki baravar ko'paytirilishi va berilishi kerak.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, Xamurappi qonunlari jamiyatning barcha sohalarini, xususan barcha tabaqa vakillarini ijtimoiy holatidan qat’iy nazar qonun hammaga birday ekanligi va har doim jinoyat uchun jazo muqarrar ekanligi bilan ajralib turadi.Ushbu qonunlar to’plami orqali davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy jihatiddan tenglashtiradi. Mamlakat hududida tinchlik va osoyishtalik ta’minlanadi. Bir so’z bilan aytganda aholining tinch va farovon yashashi va mamalakatni rivojlantirish hamda jinoyatchilikni oldini olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –T.:.2009. B. 438.
2. Rajabov R. Jahon tarixi. –T.:.2015. B. 604.
3. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. –T.: Tafakkur. 2016. B. 366.
4. Rajabov R. Jahon tarixi. –T.: Yangi asr avlodi. 2018. B. 448.
5. Abdullayev U. Jahon tarixi. –T.: 2018. B. 388.
6. Xammurapi qonunlari - Vikipediya" https://uz.m.wikipedia.
7. Xammurapi - Vikipediya" https://uz.m.wikipedia.
8. www.ziyouz.com.
9. www.elib.buxdu.uz.

WORDLY
KNOWLEDGE